

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ MA‘MURCHILIGIDA SOLIQ TO‘LOVCHILARGA XIZMAT KO‘RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Yusupov Farruxbek Farxodovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya:

maqolada tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning aniq maqsad va chegaralarini belgilash, tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan yangi mahsulot va xizmat turlarini joriy etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali ular uchun tartibga solish yukini kamaytirish, mavzusida takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: soliq, budget siyosati, foyda solig‘i, budget, soliq ma‘murchiligi, tadbirkorlik sub’ektlari, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Kirish:

Hozirgi sharoitda mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash, soliq tizimidagi iqtisodiy islohotlarni yanada takomillashtirish va uni amalga oshirish, soliqlarning tartibga solish funksiyasini kuchaytirish, kichik biznes sub’ektlarini rivojlantirish va uning iqtisodiyotda tutgan o‘rmini yanada mustahkamlash ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim masalalariga aylanib bormoqda.

Tadbirkorlik sub’ektlarining iqtisodiy faolligini qo‘llab-quvvatlash bilan birga, sohani raqamlashtirish - Elektron hisobvara-q-fakturalari bilan qamrov darajasi 100 foizga, hisobotlarni avtomatlashtirish 76 foizdan 86 foizga yetkazilganligi, “Tahlika-tahlil” AAT, “E-ijara”, “Avtokameral”, Tax.gap, “Cashback” va “Soliq” mobil ilovasi va boshqa qator dasturiy mahsullarning ishga tushirilishi soliq tushumlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Keng jamoatchilikni jalb qilgan holda, savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida to‘lov intizomiga rioya etilishi bo‘yicha rag‘batlantirish institutining (“Cashback” va “Soliq” mobil ilovasi) joriy etilishi aholining faolligini oshirib, yashirin tovar aylanmalarini soyadan chiqarishga sabab bo‘ldi va onlayn nazorat kassa mashinalari orqali tovar aylanmasi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 161 foizga o‘sdi (70,6 trln.so‘mdan 113,5 trln.so‘mga yetdi).



Ma'lumot uchun: Xarid cheklarini qayta ishlash natijasi bilan to'lovga tasdiqlangan 337,7 mlrd.so'mlik keshbek summasidan 313,7 mlrd.so'mi fuqarolarga to'lab berildi. Qolgan 24 mlrd.so'mni fuqarolar o'z xoxishlariga ko'ra istalgan vaqtida plastik kartalariga ko'chirib olish imkoniyatiga ega.

"Soliq hamkor tizimi" orqali tushgan murojaatlar bo'yicha 95,7 mingta chek bermaslik, 4,3 mingta holatda plastik kartalarga savdo qilmaslik va 395 ta holatda mahsulotlarni plastikka xaqiqiy bahosidan qimmat sotish bo'yicha fuqarolarning buzilgan huquqlari tiklandi.

To'lov intizomi buzilishiga qarshi befarq bo'lmasdan qonun buzilishlari to'g'risida soliq organlariga xabar bergan fuqarolarga 24,1 mlrd.so'm miqdorida mukofot pullari undirilgan moliyaviy jarima summalari hisobidan to'lab berildi.

"Avtokameral" tizimi orqali 48,4 mingta tadbirkorlik sub'ektiga 1,3 trln.so'mlik xatoliklarini ixtiyoriy to'g'irlash imkoni berilib, 960 mlrd.so'mi undirib olindi. Shuningdek, ularga nisbatan 715 mlrd.so'mlik moliyaviy jarimalar qo'llanilmadi. Tadbirkorlik sub'ektlari hisobotlaridagi xato-kamchiliklarni aniqlash bo'yicha barcha ma'lumotlar avtomatlashtirilishi natijasida, 1 ta kameral tekshirish doirasida barcha kamchiliklarga aniqlik kiritish imkoniyati yaratildi va buning natijasida tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida takroriy tekshirish o'tkazishni oldi olindi. Natijada, o'tgan yilga nisbatan o'tkazilgan kameral tekshirishlar soni 30,5 mingtaga kamaydi.

"E-ijara" elektron xizmati joriy etilishi natijasida 243 mingta ijara shartnomasi va undan olinadigan 9,5 trln.so'mlik daromadlari nazoratga olindi (yuridik shaxslar o'rtasida 5,5 trln.so'mlik 81 mingta va jismoniy shaxslar o'rtasida 3,9 trln.so'm qiymatdagi 162 mingta shartnoma tuzilgan).

Soliq organlarida ijara shartnomalari hisobga qo'yilishi natijasida 162 mingta shartnoma asosida 102,7 mlrd.so'm jismoniy shaxslarning daromad solig'i hisoblangan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 27,4 mlrd.so'mga yoki 36,4 foizga oshdi.

Shuningdek, 2022-yilning sentyabr oyidan boshlab, "E-ijara" elektron xizmatida transport vositalarining ijara shartnomalarini rasmiylashtirish imkoniyati yaratildi. Natijada o'tgan 20 kunda 102 ta 74,2 mlrd.so'mlik transport ijara shartnomalari ro'yxatga olindi.



Mulkini ijaraga bergan 3 642 ta soliq to'lovchilarga 38,0 mlrd.so'm aylanmadan olinadigan soliq hisoblandi yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,8 mlrd.so'mga yoki 40 foizga oshdi.

Tushumlardan tashqari, ushbu instrument yashirin faoliyat yuritadigan sub'ektlarning tovarlari harakatini amalga oshirishda jiddiy to'siq bo'lmoqda.

Bundan tashqari, mahsulot (tovar va xizmat)larning yagona elektron milliy katalogi joriy etilishi natijasida – "Tasnif.soliq.uz" tizimida 259,9 ming dona mahsulot (tovar va xizmat)larning yagona elektron milliy katalogi shakllandi.

Jami aktiv foydalanishda bo'lgan 180,3 mingta ONKTLardan joriy yilning 1 avgust holatiga 98,6 mingtasining MXIKlari noto'g'ri kelayotgan bo'lib, shundan 1 sentyabr holatiga 93,8 mingtasining MXIKlari to'g'ri kelishi ta'minlandi.

Shuningdek, Raqamli markirovash tizimi bosqichma-bosqich alkogol, tamaki va pivo mahsulotlari savdosining barcha jarayonlarida joriy qilindi. Ishlab chiqaruvchi (51 ta alkogol, 2 ta tamaki va 26 ta pivo) va import qiluvchi (10 ta alkogol va 4 ta tamaki) korxonalar tomonidan jami 1,5 mlrd. dona markirovkalangan mahsulotlar ishlab chiqarilgan va realizatsiya qilingan.

Tizim 2022-yilda joriy qilinishi natijasida 51 ta alkogol mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonasining 2022 yil 8 oylik realizatsiya ko'rsatkichlari o'tkan yil mos davriga nisbatan 7 foizga, 8 ta importda esa 47,6 foizga va 26 ta pivo ishlab chiqaruvchida 11 foizga oshganligi kuzatildi.

Xulosa va takliflar

Chakana savdo, umumiy ovqatlanish va aholiga maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlarida xaridni amalga oshirgan va ushbu xaridni soliq organlarining maxsus mobil ilovasida xarid cheking fiskal belgisini matritsali shtrix kod (QR-kod) yordamida skanerlash orqali ro'yxatdan o'tkazishni takomillashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Elektron tijorat platformalari — «Marketpleys»larning axborot tizimlari yordamida masofadan turib amalga oshirilgan savdo va pullik xizmatlar bo'yicha tranzaksiyalarning elektron cheklarida soliq organlari axborotlar tizimlariga integratsiyalashgan va avtomatik tarzda shakllanuvchi fiskal belgilarni majburiy aks ettirish talabini o'rnatish mexanizmini joriy qilindi mazkur masalani yanada kengaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.



Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.
2. Нормурзаев, У.(2022). Хукуматимиз томонидан солиқ маъмурчилиги бўйича 2018-2022 йилларда амалга оширилган солиқ ислохотлари натижалари. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, 10(5), 325–330. https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss5/a35
3. Нормурзаев У. (2021). Пути эффективного использования налоговых льгот для поддержки предпринимателей. Экономика и инновационные технологии, (4), 355–362. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/11954.

